

## "TARIXI NADIYMIY" ASARINING ILMIIY AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Markaziy Osiyoning XVIII – XIX asrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi mazkur asar, ko'pgina mamlakat kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu asarni fransiyalik sharqshunos olim Shefer uzoq muddatli izlanishlari mobaynida fransuz tiliga tarjima qilgan. Mazkur tarjima orqali biz XVIII – XIX asrlardagi O'rta Osiyo hududlarining tarixi, tabiati va geografiyasi haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar.** Tibet, Qojarlar, naqsh, Kofir Siyohpurush, Shohi Badaxshon, Durraniylar, Shefer, Istanbul, manba, Orif Bey

### THE SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF THE WORK "TARIKHI NADIYMIY"

**Abstract.** This work, which provides information about the social, economic, and cultural life of Central Asia in the 18th–19th centuries, is preserved in many libraries around the world. The French orientalist scholar Schefer translated this work into French during his long-term research. Through this translation, we can obtain information about the history, nature, and geography of Central Asian regions in the 18th–19th centuries.

**Keywords:** Tibet, Qajars, ornament, Kafir Siyohpurush, Shahi Badakhshan, Durraniis, Schefer, Istanbul, source, Arif Bey.

### Научное значение произведения "Тарихи Надиымий"

**Аннотация.** Данное произведение, содержащее сведения о социальной, экономической и культурной жизни Центральной Азии в XVIII–XIX веках, хранится во многих библиотеках мира. Французский востоковед Шефер перевёл это произведение на французский язык в результате многолетних исследований. Благодаря этому переводу мы можем получить информацию об истории, природе и географии регионов Средней Азии XVIII–XIX веков.

**Ключевые слова:** Тибет, Каджары, орнамент, Кафир Сяхпуруш, Шахи Бадахшан, Дурранийцы, Шефер, Стамбул, источник, Ариф Бей.

**Kirish.** Mang'itlar sulolasi davrida faolliyat ko'rsatib, uzoq yillar davomida sayohatlar o'tqazgan tarixchi, geogrif va elchi Abdulkarim Buxoriy haqida deyarli ma'lumotlar yo'q. U haqida ba'zi manbalarda sayyidlar avlodidan bo'lganligi aytilgan. Uning mazkur asari sayohatlari orqali o'zi guvohi bo'lgan yoki manbalar orqali hikoya qilgan. Asarida noan'anviy tarixnavislikdan foydalanib ya'ni asarda islom dinining yaratilishi, payg'ambarlar tarixi, O'g'uzxon afsonasi va Chingiziylar nasli bilan emas, o'ziga yaqin bo'lgan davr bilan chegaragan. Mazkur asarni fransuz sharqshunosi Shefer uzoq yillar mobaynida fors tilidan fransuz tiliga tarjima qilgan. Asarda Markaziy Osiyoga hukmdorlik qilgan sulolalar davrida bo'lib o'tgan voqealar, har bir hukmdorning ichki va tashqi siyosatlarini, Markaziy Osiyo aholisining mashg'ulotlari va ularning ijtimoiy holati, shuningdek, Mintaqaning geografiyasi va tabiati haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Shuningdek, asarda Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalarining Markaziy Osiyoga suqulib kirishlari haqida ham bayon etilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur asarni tahlil etishda Sheferning 1876 yilda tarjima qilgan "Histoire de l'Asie centrale" asari Fransua Jozef tomonidan qaytadan nashr ettirilgan. Shu bilan birganlikda Mustaqillik yillarida yozilgan D.Ziyoyevaning "O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar" monografiyasidan foydalanildi.

**Metodologiyasi.** Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi

**Muhokama va natija.** Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlangan Mir Abdulkarim Buxoriyning "Tarixi nadimiy" (yoki "O'rta Osiyo tarixi" ham deb yuritiladi.) asari bir qancha mamlakatlarning XVIII oxiri XIX asrning birinchi choragigacha bo'lgan voqealarini bayon etadi.

XIX asarda G'arbiy Yevropa mamlakatlar turli maqsadlarga ko'ra O'rta Osiyo mintaqasiga qiziq boshlagan. Shuning uchun eng avvalo ular o'lkani tarixiga diqqat qaratgan. XIX asrda fransuz sharqshunoslarida biri bo'lgan Shefer ham O'rta Osiyo mintaqasiga oid ma'lumotlarni to'plashga va ularni tarjima qilishga harakat qilgan. Shefer bu manbani tarjima qilar ekan shunday degan edi "Markaziy Osiyo haqida sharq manbalarining nihoyatda kamligi sababli, men Mir Abdulkarimning asarini uning kamchiliklari va jiddiy nuqsonlariga qaramay, matni va tarjimasini nashr etishga qaror qildim" [1]. Muallif asarni tarjima qilar uni to'liq emas, shartli qisqartitishlar bilan tarjima qilgan. Muallif yozishicha asar fors tilida, Buxoro lahjasiga yozganligini aytgan. Sheferning yozishicha, asarning tarjima sarlavhasida muallif Norbo'tabiyni o'g'li Olimxon muhrining o'ymakor tasvirini chizgan. Shuningdek, Muallif yozishicha, bu muhr Pekinda olib borilgan ekan, so'ngra Fransiya Legatsiyasi kansleri janob Shertser bu muhrni sotib olgan. So'ngra, kansler muhrni Sheferga sovg'a tariqasiga jo'natgan. Shefer Abdulkarim Buxoriyning asarning nusxasini 1851 yilda Orif Beyning kutubxonasidan sotib olgan. Shefer qayd etishicha, asarning ba'zi varoqlari yo'qolgan bo'lishi mumkin, chunki asarning birinchi bobi Afg'oniston davlati haqida ma'lumotlar ozligi va chalkashligini yozgan, ammo Fransiyada Afg'oniston tarixi oid manbalar yetarli ekanligini yozib qoldirdan. Ko'rinib turibdiki, Shefer bu asarni tarjimasiga 15 yil vaqt sarflagan. Bu asarda tarjimon manbalariga tayangan holda Markaziy Osiyoning XIX asardagi xaritasini tuzgan. Bu ma'lumotlar orqali biz O'rta Osiyo eksponatlari va qimmatli ashyolari XIX asrda Yevropaga tarqala boshlanib, Yevropani qiziqish uyg'otgan.

Asarning (ilmiy) ahamiyatligi shundaki, asarda muallif o'zi guvohi bo'lib o'tgan va o'ziga yaqin bo'lgan yillar oralig'ida o'tgan voqealarni yozgan. Xususan u Buxoro bobida, Nodirshohning Buxoro xonligiga olib borgan bosqini haqida bayon etib bu hududni egallaganligi haqida yozgan. Abdulkarim Buxoriy o'sha paytlarda Abulfayzxonning mag'lubiyat sabablarini afsus bilan yozgan Ashtarxoniyalar sulolasining oxirgi vakili bo'lgan Abulfayzxonning fojiasi va uning o'g'li Abdulmo'minning ayanchli qismati haqida yozgan. So'ngra, Mang'itlarning hokimiyatga kelishi haqida hikoya qilgan. Mang'itlar sulolasining dastlabki to'rtta vakillari haqida yozib, amir Haydarning homiyatini dastlabki yiligaacha bayot etgan. Tarixiy nadimiy asarining Buxoro tarixi uchun ahamiyatli jihati shundaki asarda Aynan Abulfayzxonning taxtdan ag'darilishi to'liq bayon etilgan. Abdulkarim Buxoriyning yozishicha Eron shohi Nodirshohning vafotidan keyin Muhammad Rahimxon Chorjo'y orqali qo'shin boshlab Buxoroga kirib kelganligini, Buxorodagi fors lashkarlarining Muhammad Rahimxonga qarshilik ko'rsatganligi va Abulfayzxonni himoya qilishi haqida yozgan. Bu ma'lumotlar orqali biz "Tarixi Nadimiy" asarini Mang'itlar sulolasining buyurtmasi emas balki, muallifning xolisona yozganligiga ishora qilmoqda. Shuningdek, Doniyolbiy otaliqning farzandlarini to'liq sanab o'tgan. Asarda uch kumdorlarning qabrlari haqida ham ma'lumot olishimiz mumkin. Amir Shohmurodning Marv uchun Bayram Alixon bilan olib borgan kurashi va bu janglardagi amirning olib borgan strategiyasi haqida muallif aniq bayon etgan.

Shuningdek, Xiva xonligi haqida aytilib, Unda Muhammad Amin inoqning hukmronligi davridan boshlab bayon etgan. Muhammad amin inoqga Doniyolbiy otaliqqa taxtni egallashga ko'maklashishi va amirning unga ko'rsatgan yaxshi munosabti haqida yozgan. Bundan shuni anglash mumkinki Doniyolbiy otaliqning maqsadi shu orqali Xivada o'z ta'sirini o'tqazish bo'lgan. Undan keyingi hukmdorlar Muhammad Rahimxon va Eltuzarlarning hukmronlik yillarida olib borgan islohotlari, ko'chmanchi turkman qabilalari bilan kurashlari va qoraqalpoq xalqlarining Xiva hududiga ko'chib kelishlari aytilgan. Shuningdek, Abdulkarim Buxoriyning yozishicha Muhammad Rahimxon va Eltuzar o'z nomidan oltin va kumush tangalar zarb etgan ekan Bu islohotlari orqali ularning davrida Xivada savdo munosabatlari rivojlanganligi va aholi

94 turmush hayoti ijobiy bo'lganligini tushunish mumkin. Asarda aynan mana shu uch hukmdor haqida yozilgan. Shuningdek, asarda Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida 1804 yildagi urush haqida yozib, bu jang muallif yashagan davrida bo'lganligi uchun muallif bu jangdagi har bir sarkarda ismini qayd etib ularning qismatini ham yozgan. (abzats juda katta)

Asarda Qo'qon xonligi haqida ham ma'lumot berilgan bo'lib, Qo'qon xonligining chegarasi va viloyatlarning joylashuvi haqida ma'lumot bergan. Qo'qon xonligida dehqonchilik yaxshi rivojlanib, dehqonchilik mahsulotlari arzonligini muallif ta'kidlagan. Xonlik tog'lik hududlar bilan o'ralganligi va lalmikor dehqonchilik uchun ham dehqonchilik qolgan davlatlardan yaxshi rivojlangan. Asarda No'rbo'tabiy hukmronligi bilan boshlanib, uni ta'riflar ekan, soddadil va kamtarona hayot kechirar edi deydi muallif, hatto o'zi zarb etgan tangalarda nomini yozdirmagan ekan, shuningdek, u xutbada o'zining nomini o'qib duo qilishni taqiqlagan ekan. Bu hukmdor amir Shohmurod kabi mamlakatni adolat va qonun bilan boshqargan, Abdulkarim Buxoriy yashagan davri bu davrga yaqin bo'lganligi va uni Qo'qon xonligiga xizmat qilmaganligini hisobga olsak bu ma'lumotlar ishonchli hisoblasak bo'ladi. Uning vafotidan keyin Olimxonning hukmronligi haqida bayon etib, uning davrida diniydagi yolg'onlarni fosh etib, dinni siyosatdan uzoqlashtirishga harakat qilganligini Abdulkarim Buxoriy yozgan. Biz bu ma'lumotlar orqali shuni tushunishimiz mumkinki, Olimxon ba'zi sohalar xususan ilm – fan va davlat boshqaruvida dinni uzoqlashtirish kerakligi anglagan. Agarda uning boshqaruvi uzoq davom etganida uning davrida ilm – fanning ko'plab sohaları rivojlangan bo'lar edi. Abdulkarim Buxoriyning rivoyat qilishicha “ ... bir kuni Olimxon hovuzda uzun ip tortib, bir eshonni keltirishni buyurgan va unga sen qiyomatda sirot ko'prigidan o'tasan, shuning hozir shogirdlaring oldida shu ipdan o't deb buyurgan, eshon Qur'ondan va hadisdan misollar keltirib, ipdan o'tmoqchi bo'lgan, ammo u yiqilgan, so'ngra shogirdlari uni kaltaklagan ekan.” Shuningdek, Olimxon bir farmon chiqarib, kim ko'chalarda qalandarlarni ko'rsa tezda mahkamaga keltirishga buyurgan, qalandarlar savdogarlarga tuyakashlik qilish buyurilgan buning kabi tadbirlar aholini boqimandalik va tilanchilarning sonini kamaytirishga qaratilgan.

Amir Umarxon davrida olib borgan ichki va tashqi siyosati haqida muallif bayon etgan. Shuningdek, Toshkent bekligi bilan olib borgan kurashi haqida ham asarda mufassal bayon etilib unda Yunusxon bilan kurashi va ikki marta qilgan yurishi haqida yozgan. Bu urushda Buxoro hududidan yuborilgan qo'shin hisobida Olimxon mag'lubiyatga uchraganligi aytgan. Asarda Olimxon va uning o'g'li Shoxrux Mirzoning fojiali taqdiri haqida muallif nayon etar ekan, bunga qozoq qabilari bilan bo'lgan urush ekanligini aytgan. Umarxonning amakisi tufayli topshiriqni bajarmaganligi va onasining tavsiyasi bilan Olimxonning yolg'on o'limini mamlakatga tarqatib, taxtni egallagan. Olimxon esa xiyonatdan xabar topib mardlarcha Qo'qonga borgan, ammo chegarada, askarlar tomonidan otib o'ldirilgan, Olimxon o'g'liga ming tillo tanga berib, uni amir Haydar huzuriga borishini tayinlagan, ammo u yonidagi hamrohlariga ishonib Toshkentga boradi va xoinlarcha o'ldirilgan. Bu ma'lumotlar orqali biz amir Haydarning muruvvatli va odil kishi ekanligini bilishimiz mumkin. Shuningdek, Umarxonning Rossiya imperiyasi bilan olib borgan munosabatlari haqida ham ma'lumotlar berilgan. (bitta abzatsda juda ko'p shuningdek so'zi ishlatilgan bu xat6)

Shu bilan birgalikda Eronda Qojarlarning tarixi haqida ham yozilib, unda shoh Fath Ali Shoh Qojarning (1797-1834) O'rta Osiyo bilan olib borgan diplomatik va savdo aloqalari haqida, shuningdek, Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining Eronga qilgan bosimi va Fath Ali Shoh Qojarning ularga qarshi olib borgan siyosati haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Afg'onistonda Durroniylar sulolasi vakili bo'lgan Ahmadshoh Durroniyning (1747-1772) hukmronlik davri, uning Eron, Buxoro va Hindiston davlatlari bilan olib borgan siyosati haqida muallif yozib qoldirgan. Asarda Xuroson, Kashmir va Tibet hududlari haqida ham alohida bob bo'lib xususan muallif Xuroson haqida yozar ekan bu davrda hududning katta qismi Afg'onistonga o'tganligini aytib, bu hududdan Badaxshon viloyati haqida so'z yuritib bu yerni boshqaruvchi kishi “Shohi Badaxshon” deb atalgan. Shuningdek, muallif Badaxshondagi ijtimoiy hayot haqida ham yozib qoldirib, dehqonchilik nihoyatda og'ir bo'lganligi, shuning uchun bu yerlarda, Hindiston va Buxoro savdogarlari qatnashini aytib o'tgan. Badaxshon hukmdoriga Balx va Buxorodan

sovg'alar keltirishini aytib o'tib, buning evaziga Chug'onlik qul - dehqonlarni sovg'a qilgan. Bu dehqonlar "Kofir Siyohpurush" (qorakiyim kiygan kofirlar) deb atalgan. Muallif Tibet haqida ham so'z yuritir ekan, Tibet - Xitoy va Hindiston oralig'ida joylashgan tog'li mamlakat bo'lganligini aytib, juda uzun va keng hududni egallaydi; uning tog'lari osmonga cho'zilgan, yo'llari esa xuddi baxillarning qalbini yumshatish qanchalik mushkul bo'lsa, shunchalik mashaqqatli deb yozgan. Tibetni kezib chiqish uchun uch oy kerak bo'ladi deydi. Poytaxti Lambeh deb ataladi; bu qalmoqlar shahri va lamalar qarorgohidir. Lambeh shahri Xitoy imperatori hokimiyati ostida. Tibet tog'larida ko'chmanchi va cho'lda chodirda yashovchi aholi bor; ular juda ko'p qo'y va echkilar boqadilar. Tibet echkilari katta bo'yi bo'lib, junlari shu mamlakat qo'ylarining junidek qalin deb aytib o'tgan. Tibetda bir toifa odamlar borki, ular Turkiyada qo'y sotib oluvchilar singari guruh bo'lib yig'iladilar; tog'larni kezib, echki junini yarim okkadan o'n okkagacha miqdorda sotib oladilar; shuningdek, ular echkilarni ham xarid qiladilar. Sotib olingan echki junini o'n okkalik xaltalarga solib, shu echkilarning orqasiga bog'laydilar; har tomondan xarid qilib, ikki oy ichida mingta echki yig'ishga muvaffaq bo'ladilar deb ularning mashg'ulotlari haqida ma'lumot bergan. Shuningdek muallif Kashmir o'lkasi haqida yozar ekan, kashmirlik aholining mashg'ulotlariga urg'u bergan. Unda yozilishicha aholi shoyi tayyorlash bilan shug'ullanashi va "ustoz-shogird" an'anasi haqida ma'lumot bergan.(snoska kerak)

Asarda fors tilidan tashqari, eski turkiy tili va XIX asarda Istanbul yozuvi va iboralaridan foydalanganligini Shefer yozib qoldirga. Asarda yillar juda oz va aniq yozilmagan, ammo Abdulkarim Buxoriy voqealarga urg'u berib, ularning sababini aniq izohlab bergan. Asarda biz Markaziy Osiyoning tabiati haqida ham ma'lumot olishimiz mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mazkur asar orqali biz Yevropada ham O'rta Osiyo tarixiga qiziqish kuchli bo'lganligini kuzatishimiz. Ushbu asar orqali biz nafaqat XVIII-XIX asrdagi tarixni shu bilan birgalikda, geografiyasi, etnologiyasi va tabiati haqida ham ma'lumot olishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda bir bu asar orqali "Sharq diplomartiyasi" haqida ham yetarlicha ma'lumotga ega bo'lamiz. Bu asar orqali biz Buxoro amirligi, Xiv ava Qo'qon xonliklari haqida ishonchli ma'lumotlar olishimiz mumkin. Shuning uchun mazkur asarni o'zbek tiliga tarjima qilishimiz lozim

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de l'Asie Centrale (Afghanistan, Boukhara, Khiva, Khoqand). Depuis les dernieres années de règne de Nadir Châh, de 1153 à 1233 de l'Hegire. Text persan et traduction français, publiés par Ch.Schefer. Vol. 2. in-8 0, avec carte. – Paris: E. Leroux, 1876. – 305 p
2. Мирза Салимбек. Тарихи Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н.Норкулов. – Ташкент: Академия, 2009. – 330 с.
3. Rajabov.Q.Buxoro Mang'it amirlari.—Т.: "FAN"—OCHUN.2025,—В.384
4. Воҳидов,Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. Тошкент: 1996. – 232 б.
5. Иванов "Восстание Китай-Кипчаков В Бухарском Ханстве 1821— 1825 гг." Ленинград,1937. -С 186